Yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat turlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-oktyabrdagi 850-son qarori. Tarkibi: 4 bo'lim, 84 ta raqamlangan band (II bo'lim alohida bandlarsiz). Matn foydalanuvchi taqdim etgan nusxadan olingan; faqat imlo va formatlash tuzatilgan.

I Chakana savdo:

1. Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, sement, shifer, yog‘och va yog‘och mahsulotlari, alkogolli va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo‘llanilgan buyumlar, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar, yangi import avtomobillar, farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)
2. Ko‘chma savdo obyektlarida aralash chakana savdo qilish (vaqtincha joylashgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, ish kuni tamom bo‘lgandan keyin obyektni demontaj qilinishi va ko‘chirilishini talab etuvchi obyektlarda)
3. Dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
4. Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
5. Tovarlarni import qilish va ular bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, sement, shifer, yog‘och va yog‘och mahsulotlari, o‘simlik moyi, alkogolli va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlari, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo‘llanilgan buyumlar, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno), bunda olib kirilayotgan tovarlarning narxi bir oyda 5000 AQSh dollari ekvivalentidan oshmaslik sharti bilan

II Qonun hujjatlarida belgilangan ro‘yxat bo‘yicha hunarmandchilik faoliyati.

III Maishiy xizmatlar, II bo‘limda nazarda tutilganlaridan tashqari:

6. Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va shunga o‘xshash boshqa xizmatlar
7. Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tashkil etish, shuningdek, dazmollash xizmatlari
8. Gilam va gilam buyumlarini ta’mirlash va tozalash

9	Tikuv, mo‘yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to‘qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta’mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo‘yicha tikuv va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarini va to‘qimachilik galantereyasidan buyumlarni tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalarini tikish, kashtachilik
10	Hayvonlar terilari, mo‘yna, to‘qimachilik, charm buyumlar va boshqa buyumlarni oshlash va bo‘yash
11	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo‘yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta’mirlash, bo‘yash va tozalash
12	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta’mirlash
13	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta’mirlash
14	Kalitlar tayyorlash
15	Metall va tunuka buyumlar tayyorlash va ta’mirlash
16	Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun’iy gullar, ikebana, gul marjonlarini tayyorlash
17	To‘siqlar, haykallar, metalldan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta’mirlash
18	Yog‘ochdan eshik, deraza va boshqa buyumlar (mebeldan tashqari) tayyorlash
19	Inventarni (xo‘jalik, sport, baliqchilik va hokazo) ta’mirlash va tayyorlash
20	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
21	Tayyor mebelni yig‘ish, ta’mirlash va drapirovka qilish
22	Musiqa asboblarini ta’mirlash va sozlash
23	Yakka buyurtma bo‘yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash, shuningdek, zargarlik buyumlarini ta’mirlash
24	Optika, soatlarni ta’mirlash va metall, plastmassa, sopol, fayans, tosh, kartondan mahsulotlarda o‘ymakorlik ishlari (qavariq yozuvlar va tasvirlar tushirish)
25	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashinalari va hisoblash texnikasini ta’mirlash, o‘rnatish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish
26	Transport vositalarini ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, shu jumladan, transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo‘riqlash signalizatsiyalarini ta’mirlash va o‘rnatish, polirovkalash, kuzovga himoya va bezak qoplamalarini qoplash xizmatlari)
27	Sanitariya-texnika xizmatlari va payvandlash ishlari
28	Shisha va oynalarni kesish, shishaga badiiy ishlov berish
29	Binolarga oyna o‘rnatish xizmatlari
30	Jamoat hojatxonalari xizmatlari
31	Hammom va sauna xizmatlari
32	Turar joylarni yig‘ishtirish xizmatlari

33	Hovlilar va bog‘larga qarash xizmatlari, shuningdek, ko‘kalamzorlashtirish ishlari
34	Bog‘lar, polizlar va dov-daraxtlarni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish
35	Video va fotosuratga olish xizmatlari
36	Xo‘jalik mollari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xo‘jalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlar va boshqalarni) ijaraga berish
37	Oilaviy mehmon uylarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etish

IV Faoliyatning boshqa turlari:

38	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat mahsulotlari, qurtni tayyorlash va sotish
39	Milliy non va patir tayyorlash va sotish
40	Popkorn, frezerda muzqaymoq, salqin ichimliklar, ayron va go‘ja tayyorlash va quyib sotish
41	Salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o‘tirish joylari tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish
42	O‘lchov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish
43	Aholi uchun turar va noturar joylarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar
44	Repetitorlik xizmatlari
45	Tarjima xizmatlari, tahrir xizmatlari
46	Bolalarning o‘yinchoq avtomatlari bilan bog‘liq xizmatlar
47	Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, ta’mirlash va ulardan foydalanish
48	Dizayn bo‘yicha xizmatlar (grafik, interyer, mebel va hokazolar), shuningdek, chizmachilik-grafika ishlari, shuningdek, rassomlik san’ati
49	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o‘yinlarini tashkil etish, shuningdek, kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko‘paytirish bilan bog‘liq xizmatlar
50	Tashrif qog‘ozlari va taklifnoma biletlarini tayyorlash va bosish
51	Muqovalash ishlari
52	Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
53	Sug‘urta agentlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar
54	Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish
55	Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (to‘y, yubiley, tug‘ilgan kun va hokazolar)
56	Ko‘ylak va kostyumlarni, shuningdek, ularga aksessuarlarni prokatga berish

57 Ijtimoiy xizmatlar (bolalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)

58 Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish faoliyati (sheyping, aerobika, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari

59 To‘garaklar tashkil etish va yuritish

60 Davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta’minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati

61 Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)

62 Tegirmonlarda donni maydalash (tozalash) xizmatlari

63 Mol so‘yish xizmatlari

64 Uy hayvonlariga qarash xizmatlari

65 Veterinariya faoliyati

66 Yuklarni avtomobil transportida tashish

67 Yo‘lovchilar va yuklarni daryo transportida tashish

68 O‘simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xomashyoni yetishtirish, yig‘ishtirish, tayyorlash va sotish

69 Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san’ati)

70 Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko‘paytirish va sotish

71 Shisha idishlar va ikkilamchi xomashyoni qabul qilish xizmatlari (metall chiqindilaridan tashqari)

72 Rieltorlik faoliyati

73 Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus va qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalangan holda xizmatlar ko‘rsatish

74 Tashkilotlar uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlash bo‘yicha xizmatlar

75 Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo‘yicha ishlarni bajarish

76 Matritsali printyerlar va alfavit-raqam bosma qurilmalar uchun bo‘yovchi tasmalarni tayyorlash va qayta ishlash

77 Qog‘ozlar va skorosshivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash

78 Telekommunikatsiyalar operatorlariga, provaydyerlariga vositachilik xizmatlari ko‘rsatish (abonentlar yoki xizmatlar ko‘rsatuvchilarga ma’lumot-axborot xizmati ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatuvchilarning xizmatlari uchun to‘lovlarni qabul qilish)

79 Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari

80 Ekskursiya xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha turistik faoliyat

81 Duradgorlik ishlari (aholi buyurtmalari bo‘yicha duradgorlik ishlarini amalga oshirish)

82	Metallni ta’mirlash ishlari (uy sharoitida metalldan tayyorlangan maishiy buyumlarni ta’mirlash (kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta’mirlash, boshqa maishiy metall buyumlarni oddiy ta’mirlash)
83	Yog‘och me’morchiligi (bolalar maydonchalari va park zonalari uchun yog‘ochdan yasalgan qurilmalar, haykallar)
84	Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashyolarini qo‘lda bo‘yash, gazlamalarga, shu jumladan trafaretli bosma va qo‘lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish)

Muhim: hujjat tanishish uchun berilgan. Qarorga keyinchalik o'zgartirishlar kiritilgan bo'lishi mumkin — amaldagi tahririni lex.uz rasmiy saytida tekshiring. Hisobchi, buxgalteriya-eight.vercel.app